

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

THE ISSUE OF LITERARY INFLUENCE IN THE 19TH-20TH CENTURIES OF EPOCHISM

Khoshimova Mohikul Akhmatovna

Sharof Rashidov Samarkand State University

Fundamental doctoral student

Abstract. This article examines the diversity of form and content of epics created in the literature of the 19th-20th centuries using the example of the epics of Tabibiy, Furqat, and Miriy. The continuity of folklore and classical poetic traditions in their work, the creation of rare examples that emerged as a result of creative approach to existing traditions, and innovation are studied. In addition, it is noted that the compositional structure of the epics of this period did not lag behind the epics created by our ancestors. The ideological and artistic features of such epics as "Vamiq and Azro", "Yeti Ravza", "Suvorov Yahal", "Yunon Mulkida Bir Afsona", "Qissasi Salim Javhariy" are interpreted. The role of these epics in the development of our literature, the poetic improvement of epics and the presence of elements of renewal in the epic genre, as well as genres that remained from the point of view of the era, are also considered.

Keywords: innovation, genre elements, poem, traditionalism, literary continuity, artistic opportunity, poetic perfection.

XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI

Xoshimova Mohigul Axmatovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: hoshimovamohigul6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX-XX asrlar adabiyotida yaratilgan dostonlarning shakl va mazmun rang-barangligi Tabibiy, Furqat, Miriy dostonnavisligi misolida ko'rib chiqildi. Ular ijodida folklor, mumtoz she'riyat an'alarining davomiyliigi, mavjud an'analarga nisbatan ijodiy yondashuv, novatorlik natijasi o'laroq yuzaga kelgan nodir namunalar yaratilganligi tadqiq etilgan. Qolaversa, ushbu davr dostonlarining kompozitsion qurilishi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan dostonlardan qolishmaganligi mushohada etiladi. "Vamiq va Azro", "Yeti ravza", "Suvorov haqida", "Yunon mulkida bir afsona", "Qissasi Salim Javhariy" kabi dostonlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari talqin etilgan. Shuningdek, ushbu dostonlarning adabiyotimiz rivojida o'rni, dostonlarning poetik jihatdan takomillashib borishi, davr nuqtai nazaridan qolgan janrlar kabi doston janrida ham yangilanish unsurlarining mavjudligi masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: novatorlik, janr unsurlari, poema, an'anaviylik, adabiy izdoshlik, badiiy imkoniyat, poetik takomil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N63>

Mumtoz adabiyotimiz durdonalari bilan chuqurroq tanishimiz bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilar ekan, Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tarzimizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi[1. B.15].

Yangi O'zbekistonda har jabhada, xususan, badiiy adabiyotda ham yangilanish va rivojlanishlar, o'tmish merosimizni o'rganishda yangicha tamoyillar ishlab chiqilmoqda. Adabiy asarlarning badiiy-estetik zavq berish imkoniyatlarini o'rganish birinchi darajali vazifa ekanligi tadqiqotchilarga ayon bo'ldi. Mana shu talablarni bugungi kunning talabi deb hisoblab, badiiy asarlar talqiniga bo'lgan nuqtai nazarlar ham o'zgarishi, ularni zamonamizga, millatimiz ravnaqiga, inson o'zligini anglashda qay darajada xizmat qilayotganini tahlil va talqin qilish bugungi adabiyot oldida turgan asosiy vazifalaridan biridir.

Ushbu dostonlar bilan tanishib chiqish jarayonida shunga amin bo'lamizki, dostonlarning tilining ravonligi, uslubning soddaligi, xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanilganligi, har bir so'zning qadr-qimmatini o'rniga qo'ygan holda qo'llaganligiga amin bo'lamiz.

Yuqoridagi fikrlarni XIX asrdagi Xorazm adabiy muhiti vakillari ijodi namunalari orqali tasdiqlashimiz mumkin. Shoir Maxfurxo'ja Sayid Hasan Xorazmiy Zohir Kirmoniyning "Vomiq va Azro" dostonini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Dostonning o'zbekcha tarjimasi ancha muvaffaqiyatli chiqib, tili sodda va obrazlilik bilan ajralib turadi. Ushbu kitob 1911-yilda qayta ko'chirilib, 710 sahifadan iborat bo'lib, oldingi nusxasidan mukammalligi bilan ajralib turadi [11. B, 45].

XX asr boshlariga kelib bu dostonning yuqorida aytib o'tilgan ikki varianti zaminida uchinchi bir asar Ahmad Tabibiyning – "Vomiq va Azro" she'riy dostoni yaratildi. Ushbu asarning yaratilishi XX asr o'zbek folklorchiligida shu mavzudagi nodir, mukammal asarlarning yaratilishiga ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. Bunga misol qilib, Raxmatullo Yusuf o'g'lining 1946-yilda yozilgan "Vomiq va Azro" dostonini ko'rsatishimiz mumkin [11. B. 6]. Biroq bu asar badiiy adabiyotdagi Tabibiy dostoniga nomigina o'xshash bo'lib, syujet va g'oyaviy yo'nalishi jihatidan boshqa-boshqa asarlardir. O'rganilgan shu kabi manbalardan aniq bo'ladiki, Tabibiyning "Vomiq va Azro" dostonini o'zbek yozma adabiyotida yozilgan shu nomdagi yagona asar degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Dostonning badiiy jihatdan pishiq ishlanganligi shoirning yuksak mahoratidan darak beradi. Unda Tabibiyning Navoiy asarlaridan ilhomlangan holda o'zbek adabiyotining an'analarga sodiq holda ham makon, ham zamon nuqtai nazaridan o'ziga xos yangiliklarni ham kiritadiki, ushbu jihatlar Tabibiy asarlarining qadr-qimmatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Tabibiy bu asarlarida axloqiy- ta'limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga adolatli tuzum qanday bo'lishi kerakligi haqida uqtirishni o'z oldiga maqsad qilib oladi. Kishilarni ilm- ma'rifatga undash hamma zamonda ham dolzarb bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu jihatdan Ahmad Tabibiy ijodini o'rganishdagi tadqiqotlarni keng miqyosda ko'rib chiqish zarurligini taqozo etmoqda.

Adib tamagirlikni eng yomon xislatlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Unda shoir kishilarni halol mehnati bilan yashashga chaqiradi. Bu o'sha davrning voqeliklarini aniqlashda yordam beradi. Ravza so'ngida Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi tamagir va qanoatli kishi haqidagi hikoyatini keltiradi. Bu unsurlarning barchasini o'qib tahlil qilib shunga amin bo'lamizki, Tabibiy o'z salaflarining dostonnavislikdagi an'analarga sodiq qolgan holda o'z fikrlarini va g'oyasini bayon etgan. U shu bilan xonlarning qanday davlat hukmdori bo'lishi kerakligini, jamiyatdagi ba'zi bir qusurli insonlarga ko'zgu tutganligini ilgari suradi. Ikkinchi tomondan novatorlik g'oyalarni ham singdirganligini tahlil qiladigan bo'lsak, Tabibiy doston janrining poetik takomiliga ham erishgan deb ayta olamiz.

XIX-XX asrlar dostonchiligida yana bir ijodkor o'zining yuqori saviyali dostonlari bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Furqatdir. Furqat O'rta Osiyo xalqlari ongida hukm surgan ayrim diniy, urf-odatlariga tanqidiy ko'z bilan qaradi. O'sha davrda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni haqida kuyinib, asarlar bitgan. Furqat xotin-qizlarning jamiyatdan mutlaqo chetlashtirilganidan achindi. Furqatni haqiqiy novator dostonnavis deb aytishimiz mumkin. U o'zining ajoyib ijodiy faoliyati bilan adabiyotimizga yangi g'oyalar, yangi obrazlar olib kirgan. Biz tadqiqotlarimiz natijasida Furqatning bir dostoni haqida ma'lumot berishimizni joiz topdik.

Dostonning bundan keyingi satrlarida qiz sarguzashtlari bayon qilinadi. Qizning betob bo'lib, shifokorlar maslahati bilan sohildan qasr qurilishi va bu qasrda qizning davolanishi; keyingi voqealar rivojida qizning sayohatlari va daryoga g'arq bo'lishi; uning baliqchi to'riga ilinib qutqarilishi; qiz hushiga kelgandan keyin o'z asli nasabini bildirishi, baliqchining qizni Ro'moga olib kelib, uning o'z ota-onalari bilan topishtirishi doston voqeasining asosiy epizodlarini tashkil etadi. Dostonning oxirgi qismida ta'kidlanishicha, bir o'limdan qolgan qiz qolgan umrini sayohat bilan o'tkazishga jazm qiladi. Asar syujeti bilan tanishar ekanmiz dostonnavisning xalq og'zaki ijodi namunalaridan yaxshigina xabardor ekanligini bilib olamiz. Bundan tashqari dostonnavisning mohir olimligi geografik joy nomlarining ketma-ket qo'llanishida ham ma'lum ma'noni ifodalaganligini bilib olamiz.

"Yunon mulkida bir afsona" dostonining syujetidan ko'rinib turibdiki, unda g'oyat hayajonli sarguzashtlarni boshidan kechirgan qiz obrazi yaratiladi. Dostondagi novatorlik uchqunlaridan yana biri ayol zotining asosiy bosh qahramon sifatida olinishidadir. Furqat yashagan davrda ayollarning erki qo'lida bo'lmagan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmagan, ularning orzu-intilishlari, o'y-fikrlari ahamiyatsiz edi. Dostonnavis chet el qizi misolida o'zbek qizlariga orzulari ketidan qaytmaslik kerakligini uqtiradi. Doston qahramoni o'z xarakteri, sayohat qilish niyatida o'z el-yurtini tashlab chiqishi, dunyoni darbadar kezib yurishi bilan Furqat tabiatini eslatadi¹. Shoir ijodining serqirra motivlaridan biri bo'lgan romantik motivlarning mavjudligi, doston janri Furqat ijodida ham alohida ahamiyatga ega ekanligini "Yunon mulkida bir afsona", "Suvorov haqida" kabi dostonlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Furqat dostonnavisligining badiiy xususiyatlariga xos bo'lgan bu realizm va novatorlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sintezlashib ketgan. Uning ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan barcha asarlarida esa, o'zining tematikasi, hayotiy mazmuni va bu mazmunni ifodalash uslubi jihatidan poeziyaning yuksak badiiy xususiyatlarini ta'minlaydi. Furqat mumtoz dostonchiligi ilmidan yaxshigina xabardor bo'lgan va o'z ijodiy tajribasida uning qoidalariga to'liq rioya qilgan.

Sharq mumtoz dostonnavisligini munosib tarzda davom ettirgan ijodkorlardan yana biri Ochildimurod Miriydir. Miriy to'g'risida ilk bor ilmiy maqolalar yozgan adabiyotshunoslardan Abdulhamid Majidiydir. U 1927-yilda "Shoir Miriy" va "Miriyning boshqa asarlari to'g'risida" nomli maqolalarini e'lon qildi[11. B. 79]. Birinchi maqolada shoirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida mushohada etilgan bo'lsa, ikkinchi maqolada Miriyning zullisonayn shoir sifatida ta'kidlab, Alisher Navoiy ijodi bilan munosabati haqida fikr bildirgan.

Miriy ham doston janrining nodir namunalarini yaratib, avlodlarga yetarlicha meros qoldirgan. U forsiy tilda yaratilgan "Ra'no va Zebo" dostonidan so'ng o'zbek tilida ham doston yaratishga jazm qiladi. Buni adib dostonning kirish qismida ta'kidlaydi:

Ham andoq nazm qildim "Mahfiloro"

¹ Huhfu

Ki ya'ni qissai "Ra'novu Zebo".
Bo'lub ulforsiy til birla manzum,
Ki bo'lmish masnaviy tarhida marhum.
Ani ko'rgach taajjub birla ahhob,
Hadisi nuqta birla berdilar tob [12. B. 14].

Yuqoridagi misralarda Miriy fors tili va o'zbek tilini mukammal egallaganini ta'kidlaydi va bu dostonning yaratilishida aqrolarning maslahati turtki bo'lganligi haqida fikr yuritadi. Miriy dostonchiligi o'ziga xosligidan yana biri kamtarlik jihatlarini ko'rsata bilgan. Ya'ni u o'zining dostonnavislik mahoratini puxta egallaganidan g'ururlanmay tavoze bilan so'z boshlaydi. Shu jihatdan u Navoiylar an'alarini davom ettiradi. "Salim Javhariy"da asosiy hikoyasi qahramon hayotida sodir bo'lgan musibatdan- Salimning zindondaligidan boshlaydi. Bu hodisa mumtoz dostonchiligidan farq qiladi. Ya'ni poema boshlanishi tugundan boshlanadi. Miriy dostonining poetik takomilini ko'rsatib beruvchi yana bir jihati asar kompozitsiyasidagi bir bo'shliqni asosiy hikoya bilan mantiqan aloqasi bo'lmagan Muhammad Boqir to'g'risidagi hikoyatning keltirilishidir. Poemaning qoliplovchi hikoyasi ichiga Hajjoj saroyi amaldori Fattohning qizi epizodi ham kiritilganki, u Salim Javhariy to'g'risidagi qissani boshlash va Salimning poemadagi voqealar maydoniga olib kirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur doston Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni bahrida ya'ni, aruz vaznining hazaji musaddasi maqsur bahrida (ruknlari- mafoilun mafoilun mafoil) yozilgan. Shu jihatning o'zi mazkur dostonning yozilishida adabiy ta'sir etilganligini isbotlaydi. Chunki kamdan-kam ijodkorlar ushbu bahrda qalam tebratishga jazm etganlar.

Bu razm ichra qalam qaytarsa yuzni,
Boshin qilgum qalam bilsun bu so'zni [12. B. 34].

Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va obrazlar sistemasi haqida so'z borar ekan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, shoir mazkur asarida boshqa dostonlarda ta'kidlagani kabi xotin-qizlarni himoya qilish, ularning haq-huquqlarini e'tirof etish, kuylash g'oyasini ilgari suradi. Bu g'oya Furqat dostonlarida ham

Anosirdin qilib tarkibi odam,
Yig'ibon to'rt zid qilding mukarram.
Bo'lib har qaysiga o'zga tabiat,
Burudat suvgadur, o'tga harorat [12. B. 8].

Shu bilan birga, real dunyodagi voqea-hodisalarning o'zaro bog'liqligi jonli tarzda aks ettiriladi. Dostonning yana bir jihati shundaki, asarning yozilishida ustozlardan madad so'rashi Navoiy dostonlarini eslatadi.

Bu yo'lda rahbarim qil ruhi Jomiy,
Itim deb yo'qlagay shoyad Nizomiy.
Navo bo'stonida chekkan sadoe,
Amiri turklar, ya'ni Navoiy [12. B. 9].

Shoir ustozlari Nizomiy, Jomiy, Navoiylar to'g'risida fikr yuritadi, ulardan ijodiy madad so'raydi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz an'anasida asar yozish har bir davrning dolzarb masalasi bo'lgan. Har qanday qalamkash ham qo'l urishga jazm eta olmagan, ham shakl, ham mazmun jihatdan dostonlarning janr talabi juda murakkabdir. Shunday bo'lsa-da XIX-XX asrlar

ijodkorlari ushbu an'anaga sodiq qolgan holda, mukammal, takrorlanmas, nodir asarlar yaratishgan. Ushbu davr ijodkorlari bo'lgan Xiromiy, Tabibiy, Furqat, Miriylar ijodining o'ziga xosligi shundaki, ular o'z davrining ziyoli kishilari sifatida madaniy va adabiy hayotning turfa muammolarini qalamga olishdi, ijtimoiy hayotning asosiy tub masalalarini xalq manfaati nuqtai nazaridan xalq tomonida turib kuyladi. bu asarlarida axloqiy- ta'limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga adolatli tuzum qanday bo'lishi kerakligi haqida uqtirishni o'z oldiga maqsad qilib oladi. Kishilarni ilm- ma'rifatga undash hamma zamonda ham dolzarb bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu jihatdan Xiromiy, Tabibiy, Furqat, Miriylar ijodini o'rganishdagi tadqiqotlarni keng miqyosda ko'rib chiqish zarurligini taqozo etmoqda. Mazkur asrlarda O'rta Osiyadagi ijtimoiy sharoit juda murakkab bo'lgan. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan dostonnavislar qarashlarida ana shu murakkablikning in'ikosi ko'rinadi. Ularning o'z davri adabiy hayoti bilan hamnafas bo'lishi kelgusi avlodlar uchun qadrli va aziz bo'lishini ta'minlagan. Mana shunday durdonalarni chuqurroq o'rganish va tadqiq qilish bugungi davr talabi hisoblanadi va bu orqali biz adabiyotimiz oldida turgan bir qancha savol va muammolarga yechim topamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent O'zbekiston. 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва форовон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. A.Jalolov. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi O'zbek adabiyoti.-Toshkent: "Fan", 1991.151 b
4. B.Valixo'jayev.O'zbek epik poeziyasi tarixidan. -Toshkent: "Fan"1974.170 bet.
5. Valixo'jayev B. XIX-XX asrning 2-yarmidagi o'zbek poemachiligida Alisher Navoiyning traditsiyalari. "Adabiyot va hayot".-Samarqand,1969.13-20-b.
6. Abdullayev V, Valixo'jayev B. Miriy va uning zamondoshlari. -Toshkent: "Fan" 1978. 92-b.
7. Muhiddinov M.Q. Adabiy an'ana va ijodiy o'ziga xoslik.-Toshkent: Ma'naviyat,1990.105-b.
8. Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik (nashrga tayyorlovchi Xolid Rasul).-Toshkent: Badiiy adabiyot,1975. 295-b.
9. G'anixo'jayev F. Ahmad Tabibiy. -Toshkent:"Fan"1978.80-b
10. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. -Toshkent: O'zbekiston, 2008.-536 b.
11. Tabibiy. Tanlangan asarlar. Vomiq va Azro. -Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968.-218 b.
12. Miriy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: Badiiy adabiyot, 1964.168 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).